

## YANGI BILIMLARNI QO'LLAYMIZ

### Bilish va tushunish

1. Tirik organizmlarda diffuziya va osmos qanday amalga oshadi?
2. Ildiz qanday zonalardan tashkil topgan?
3. Suv ildiz orqali qanday so'rildi?
4. Poya qanday qismlardan tashkil topgan?
5. Ksilema va floema qanday moddalarni tashiydi?
6. Transpiratsiya qanday amalga oshadi?

**Qo'llash.** Gul rangini qanday o'zgartirish mumkin?

### Tahsil

1. Osmos va diffuziyani taqqoslang.
2. Floema va ksilema bir-biridan qanday farqlanadi?

**Sintez.** Nima uchun o'simlikka me'yordan ortiq suv quyib bo'lmaydi?

**Baholash.** Transpiratsiya atrof-muhit va o'simlik uchun qanday ahamiyatga ega?

### Topshiriq

O'simlikdagi transpiratsiya jarayonini ko'rsatuvchi tajribalarni o'rganining va fikrlaringizni o'rtoqlashing.

## 7.2. LABORATORIYA MASHG'ULOTI. O'SIMLIKLARDA MODDALAR TRANSPORTINI O'RGANISH

**Maqsad:** poya orqali mineral va organik moddalarning harakatini o'rganish.

Poyada transport vazifasini ksilemada joylashgan o'tkazuvchi naylar va floemadagi elaksimon naylar amalga oshiradi.

**Bizga kerak:** karam bargi va terak o'simligi novdasi, qizil, sariq va ko'k rangli oziq bo'yoqlari, to'rtta stakanda suv, pichoq, yelim idish.



**Xavfsizlik qoidalari:**

**Ishni bajarish tartibi:**

1. 1-stakandagi suvgaga o'n tomchi sariq rangdagi oziq bo'yog'i tomiziladi.
2. 2-stakandagi suvgaga o'n tomchi qizil rangdagi oziq bo'yog'i tomiziladi.
3. 3-stakandagi suvgaga o'n tomchi ko'k rangdagi oziq bo'yog'i tomiziladi.
4. Uchala stakanga karam bargi solinadi.
5. Bir soatdan so'ng bargning bo'yaganini kuzatish mumkin.



O'simlikda mineral moddalarning transporti.



O'simlikda organik moddalarning transporti.

6. Terakning bargli novdasidan ikki dona kesib olinadi.
7. Birinchi o'simlik novdasining pastki qismidan 3 cm qoldirib, po'stloq halqa shaklida kesib olinadi.
8. Ikkinchisi o'simlik novdasi butun qoldiriladi.
9. Ikkala novda stakandagi suvgaga solinadi.
10. 3-4 haftadan so'ng ildiz hosil bo'lishi tekshiriladi.

**Natija:** bo'yoqlar poya bo'ylab harakatlanib, o'tkazuvchi nayning bo'yalishiga sabab bo'ladi. Po'stloq orqali organik moddalar harakatlangani sababli ildiz po'stloqning uchki qismida hosil bo'ladi.

#### **Muhokama qiling va xulosa chiqaring:**

1. Mineral va organik moddalar poya bo'ylab qanday harakatlanadi?
2. Bu tajribalardan hayotda qanday jarayonlarda foydalanish mumkin?
3. Nima uchun halqa hosil qilib kesilgan novdaning yuqori qismida ildiz va shish hosil bo'ldi?

### **7.3. LABORATORIYA MASHG'ULOTI.**

#### **BARGLARNING SUV BUG'LATISHINI O'RGANISH**

**Maqsad:** o'simlik barglari orqali suv bug'latish jarayonini o'rganish.

Transpiratsiya (o'simliklarning suv bug'latishi) barg og'izchalari orqali amalga oshiriladi. O'simliklar suv bug'latish orqali organlarini qizib ketishdan asraydi.

**Bizga kerak:** suv to'ldirilgan 2 litrli va 0,5 litrli plastik idish, 50 cm li egi-luvchan nay, 25x6 cm li ikkita karton qog'oz, qog'oz chizg'ich, skotch, shpris.

**Xavfsizlik qoidalari:** 

**Ishni bajarish tartibi:**

